

2019 yil 1-dekabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishva tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yodga qo'yishva rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019 yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatimizda 4 336 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 416 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3 257 ta (20,2 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 19 350 tani tashkil etgan.






Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019 yilning 1-dekabr holatiga 19 350 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 20,2 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 26,1 % savdo, 13,8 % sanoat, 12,0 % qurilish, 7,5 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,1 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,0 % tashish va saqlash, 1,7 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,3 % axborot va aloqa hamda 26,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha royxatdan olingan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, birlik		01.12.2019 yil	
	01.12.2018 yil	01.12.2019 yil	Olingan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
Jami	16093	19350	120,2	100
<i>shundan:</i>				
Qishloq, oqmon va baliq xo'jaligi	1 242	1 455	9,0	7,5
Sanoat	2 041	2 674	16,6	13,8
Qurilish	1 815	2 319	14,4	12,0
Savdo	3 809	5 054	31,4	26,1
Tashish va saqlash	712	777	4,8	4,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 108	1 380	8,6	7,1
Axborot va aloqa	205	240	1,5	1,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	283	334	2,1	1,7
Boshqa turlari	4 878	5 117	31,8	26,5

Hududlar bo'yicha royxatdan olingan korxonalar va tashkilotlar sonining eng ko'pi Termiz shahri (4 003 ta), Denov (2 301 ta), Jarqo'g'on (1 474 ta) va Termiz (1 359 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Oltinsoy (737 ta), Muzrabot (846 ta) hamda Boysun (922 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 18 943 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3 659 ta (23,9 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 26,3 % savdo, 13,9 % sanoat, 12,1 % qurilish, 7,4 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,1 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,0 % tashish va saqlash, 1,7 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,3 % axborot va aloqa va 26,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Termiz shahri (3 978 ta), Denov (2 254 ta), Jarqo'g'on (1 462 ta) va Termiz (1 337 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Oltinsoy (725 ta), Muzrabot (831 ta) hamda Boysun (888 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Hududlar kesimida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda (fermer va dehqon xoʻjaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xoʻjaliklaridan tashqari)


2019-yil yanvar-noyabr oylarida 4 336 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan boʻlib, bu koʻrsatkich 2018 yilning shu davriga nisbatan 1,5 martaga koʻpdir.

**2019 yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning
yillar kesimida soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Termiz shahri (854 ta), Denov (600 ta), Sho'xchi (373 ta) va Termiz (357 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Oltinsoy (152 ta), Muzrabot (164 ta) hamda Boysun (166 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2019 yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (1 499 ta), sanoat (892 ta), qurilish (554 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (431 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa (46 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (55 ta), hamda tashish va saqlash (127 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**2019 yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tijorat korxonalarini
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil 1-dekabr holatiga 15 345 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar - 6 299 ta, oilaviy korxonalar - 1 125 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 7 560 ta, unitar korxonalar - 144 ta, aksiyadorlik jamiyatlari - 24 ta va boshqalar 193 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat ko`rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

Mas`uliyati cheklangan jamiyatlar



Xususiy korxonalar



Oilaviy korxonalar




Unitar korxonalar



Aksiyadorlik jamiyatlar



Boshqalar




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yil 1-dekabr holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 337 tani tashkil etdi. O`qgan yilning shu davriga nisbatan 170 taga yoki 201,8 % ga o`sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Afg`oniston Islom Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog`iston va Xindiston Respublikasi hissalariga to`g`ri keladi.

2019-yil 1- dekabr holatiga xorijiy kapital ishtirokida 337 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, bu korxonalar va tashkilotlarning eng ko`pi Termiz shahri (158 ta), Termiz (38 ta) Uzun (28 ta), Denov (16 ta) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi. Nisbatan kamlari Oltinsoy (5 ta), Boysun (5 ta) hamda Qumqo`rg`on (8 ta) tumanlariga to`g`ri keladi.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalarining yillar kesimida soni, birlikda**




**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda**




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 109 tasi qo'shma korxonalar, 228 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibidagi boshma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining faollik darajasi, %



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Surxondaryo viloyati	337	100
Termiz shahri	158	46,9
Boysun	5	1,5
Oltinsoy	5	1,5
Qumqo'rg'on	8	2,4
Shoqchi	11	3,2
Jarqo'rg'on	9	2,7
Sherobod	10	3,0
Muzrabot	10	3,0
Qiziriq	10	3,0
Angor	15	4,4
Sariosiyo	14	4,1
Denov	16	4,7
Uzun	28	8,3
Termiz	38	11,3

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019 yilning yanvar-noyabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 159 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 49 taga ko'paygan.

Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining asosiy qismi Termiz shahri (85 ta yoki jamidagi ulushi 53,5 %), Termiz (20 ta yoki 12,6 %) va Uzun (18 ta yoki 11,4 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Oltinsoy, Jarqo'g'on, Sariosiyo (1 tadan yoki 0,6 % dan), Qiziriq (2 ta yoki 1,3 %), Boysun hamda Qumqo'g'on tumanlari (3 tadan yoki 1,9 % dan) hissalariga to'g'ri keladi.


2019 yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarin g davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Afg'oniston Islom Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 115 ta, Rossiya Federatsiyasi . 11 ta, Tojikiston Respublikasi . 8 ta, Turkmaniston Respublikasi . 5 ta, Xitoy Xalq Respublikasi, Hindiston Respublikasi - 4 tadan, Qozog'iston Respublikasi va Turkiya Respublikasi - 2 tadan, Gretsiya Respublikasi, Gruzija Respublikasi, Eron Islom Respublikasi, Pokiston Islom Respublikasi, Niderlandiya Qirolligi, Kanada, Iroq Respublikasi hamda Fantasiya . 1 tadan yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-noyabr oylarida Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan savdo (51 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (40 ta) va sanoat (39 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa, axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (1 tadan) hamda tashish va saqlashda (2 ta) tashkil etilgan.

2019 yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil 1-dekabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 15 229 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-dekabr holatiga qaraganda 29,5 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 3 447 tasi (22,6 %) Termiz shahri, 1 838 tasi (12,1 %) Denov, 1 190 tasi (7,8 %) Jarqo'g'on hamda 1 169 tasi (7,7 %) Termiz tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning
hududlar kesimida jamidagi ulushi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 15 229 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 4 960 ta (32,6 %) - savdo, 2 598 ta (17,1 %) - sanoat, 2 285 ta (15,0 %) - qurilish, 1 363 ta (8,9 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1 339 ta (8,8 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 745 ta (4,9 %) - tashish va saqlash, 264 ta (1,7 %) - sog'lomni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 232 ta (1,5 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 1 443 tasi (9,5 %) - boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-noyabr oylarida 4 154 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 1,6 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Termiz shahri (810 ta), Denov (575 ta), Shoqchi (359 ta) va Termiz (351 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Eng kam Oltinsoy (142 ta), Muzrabot (154 ta) hamda Boysun (155 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019 yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa, eng ko'pi savdoda (1 499 ta), sanoatda (890 ta), qurilishda (553 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (428 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (46 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (52 ta) hamda tashish va saqlashda (126 ta) tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019 yilning 1-dekabr holatiga 1 147 tani tashkil etib, ulardan 1 125 tasi yoki 98,1 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda, davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 46,7 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining oʻrinish dinamikasi, birlikda




Faoliyat koʻrsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat koʻrsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 30,5 % yoki 343 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 28,2 % yoki 317 tasi sanoat, 24,2 % yoki 272 tasi savdo, 9,8 % yoki 110 tasi qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi, 1,5 % yoki 17 tasi qurilish, 1,0 % yoki 11 tasi tashish va saqlash, 0,4 % yoki 5 tasi sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish, 0,3 % yoki 4 tasi axborot va aloqa hamda 4,1 % yoki 46 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga toʻgʻri kelmoqda.

**Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi yashash va ovqatlanish xizmatlari hamda sanoat, eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2019 yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Surxondaryo viloyati	418	100
Termiz sh.	30	7,2
Oltinsoy	20	4,8
Angor	31	7,4
Boysun		
Muzrabot	5	1,2
Denov	97	23,2
Jarqoqqon	51	12,2
Qumqoqqon	9	2,1
Qiziriq	20	4,8
Sariosiyo	23	5,5
Termiz	35	8,4
Uzun	7	1,7
Sherobod	27	6,4
Shoqchi	63	15,1

2019-yil yanvar-noyabr oylarida 418 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 1,7 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Denov (97 ta), Shoqchi (63 ta), Jarqoqqon (51 ta) va Termiz (35 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Muzrabot (5 ta), Uzun (7 ta) hamda Qumqoqqon (9 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019 yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %****Sanoat****Savdo****Yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar****Qishloq, o'rmon va
baliq xo'jaligi****Qurilish****Axborot va aloqa****Boshqa turlari**

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda, ularning 34,0 % yoki 142 tasi sanoat, 27,5 % yoki 115 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 26,8 % yoki 112 tasi savdo, 8,6 % yoki 36 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,7 % yoki 3 tasi axborot va aloqa, 0,5 % yoki 2 ta qurilish shuningdek, 1,9 % yoki 8 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Surxondaryo viloyati
Statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish
bo'limi
Tel.:71-230-85-90(91)**